SHu paytgacha qaralganda yorug‘lik tarqalishi, yorug‘lik manbalar, qabul qilgichlar va boshqa jismlar harakatsiz deb faraz qilindi. Agar yorug‘lik to’lqinlari manbai (qabul qilgichi) harakatlansa yorug‘likning tarqalishi qanday bo‘lishi optikani qiziqtiruvchi savollardan biridir. Bunda harakat nimaga nisbatan sodir bo‘layotganligini ko‘rsatish zaruriyati tug‘iladi. Tovush

to'lqinlarining manbalari va qabul qilgichlarining shu to'lqinlar tarqalayotgan muhitga nisbatan harakati akustik hodisalarining borishiga ta'sir ko'rsatadi (Doppler effekgi).


Guyugensning to'lqin nazariyasiga binoan yorug'lik «dunyo efiri» deyiluvchi muhitda tarqaluvchi elastik to'lqin deb talqin etilishi yuqorida qarab o'tildi. Maksvellning elektromagnit nazariyasi paydo bo'lgach elastik efir o'mini elektromagnit to'lqinlari va maydonlarni eltuvchi efir egalladi. Bu efir o'zidan avvalgi elastik efir kabi butun dunyoni egallagan va hamma jismlardan o'ta oladigan alohida bir muhit deb faraz qilingan. Efir biror muhit bo'lganligi sababli jismarning bu muhitga nisbatan harakatlarini sezishni nazarda tutish mumkin edi. Xususan, Erning Quyosh atrofidagi harakatiga ta'sir ko'rsatuvchi «Efir shamoli» ning mavjudligini kutish mumkin edi.

Jismarning efirga nisbatan harakatini bilish absolyut sanoq sistemaning paydo bo'lishiga olib kelar va hamma boshqa sistemalarining harakatini esa shu sistemaga nisbatan qarash mumkin bo'lar edi. Mexanikadagi Galileyning nisbiylik prinsipiga asosan hamma mexanikaviy hodisalar turli inersial sanoq sistemalarida birday o'tadi. Bundan esa hamma inersial sanoq sistemalar mexanika nuqta nazaridan butunlay teng kuchli ekanligi kelib chiqadi. Efirni sezish (optik hodisalar yordami bilan) boshqa sanoq sistemalariga nisbatan ustun va alohida (efir bilan bog'liq bo'lgan) absolyut sanoq sistemani ajratish imkonи tug'ilgan bo'lar edi. U vaqtida boshqa sistemalarining harakatini shu absolyut sistemaga nisbatan qarab chiqish mumkin bo'lar edi.

Eynshteyn alohida absolyut sanoq sistemasi vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan muhit – dunyo efiri mavjud emas degan xulosaga keldi. SHunga asosan Eynshteyn Galileyning mexanikaviy nisbiylik prinsipini hamma fizikaviy hodisalarga tatbiq qildi. Eynshteynnинг nisbiylik prinsipiga asosan, *tabiatning hamma qonunlari bir inersial sanoq sistemadan ikkinchasiiga o'tishga nisbatan invariantdir* (maxsus nisbiylik nazariyasida faqat inersial sanoq sistemalari bilan ish ko'riladi). Keyinchalik Eynshteyn tajriba dalillariga muvofik, *yorug'lik tezligi bo'shliqda hamma inersial sanoq sistemalarda bir xil va yorug'lik manbai hamda qabul qilgichlarning harakatiga bog'liq emas* degan postulatni yaratdi.

Nisbiylik prinsipi va yorug'lik tezligining o'zgarmaslik prinsipi o'z mazmuni bilan fazo va vaqtning fizikaviy nazariyasi hisoblanib, maxsus nisbiylik nazariyasining asosini tashkil qiladi.

Klassik mexanikada fazo va vaqt bir-birlariga bog'liq bo'lmasligi holda qaralardi. Nyuton absolyut fazo va absolyut vaqt mavjud deb hisoblardi. U absolyut fazoni tashqi biror narsaga



bog‘liq bo‘limgan, buyumlarning doim bir xil va harakatsiz qoluvchi makonidir deb ta’rifladi. SHunga muvofiq, biror sanoq sistemada bir vaqtida sodir bo‘luvchi ikki hodisaningboshqa qolgan sanoq sistemalarida ham bir xil vaqtida sodir bo‘lishi mutlaqo o‘rinlidir, deb hisoblanardi. Lekin bu keyingi tasdiqnomaning yorug‘lik tezligining o‘zgarmaslik prinsipiga qarama-qarshi ekanligiga ishonch hosil qilishi kiyin emas.

Ikkita inersial sanoq sistemalarini olib, ularni  $K$  va  $K'$  lar bilan belgilaylik (26.5-rasm).  $K'$  sistema  $K$  sistemaga nisbatan  $v$  tezlik bilan harakatlanayotgan bo‘lsin.  $x$  va  $x'$  o‘qlarni  $\vec{v}$  vektor bo‘ylab yo‘naltiraylik,  $y$  va  $y'$  hamda  $z$  va  $z'$  o‘qlarini esa o‘zaro parallel deb hisoblaylik. Ikkala sistemada ham bitta jarayonni, ya’ni  $K'$  sistemaning  $O'$  koordinata boshida turuvchi jismning yorug‘lik signalini tarqatishi va bu signalning  $A$  va  $B$  jismlarga etib borishini ko‘rib chiqaylik. Signal manbai hamda  $A$  va  $B$  jismlar  $K'$  sistemaga nisbatan tinch holatda turibdi. Undan tashqari bu sistemada o‘lchangan  $O'A$  va  $OB$  oraliqlari ham o‘zaro teng. Demak, signal  $K'$  sistemada  $A$  va  $B$  jismlarga bir xil vaqt momentlarida etib boradilar, chunki yorug‘lik tezligi hamma yo‘nalishda bir xil va  $c$  ga teng. Xuddi shu jarayonni  $K$  sanoq sistemasida ko‘rib chiqaylik. YOrug‘lik bu sistemaga nisbatan ham, shuningdek hamma yo‘nalishda  $s$  tezlik bilan tarqaladi.  $A$  jism yorug‘lik nuriga qarab harakat qiladi,  $B$  jism esa nurga etib olishi kerak. SHuning uchun nur  $A$  jismga  $B$  jismga qaraganda oldinroq etib keladi. SHunday qilib,  $K'$  sistemada bir xil vaqtli bo‘lgan hodisa  $K$  sistemada turli xil vaqtli bo‘lib chiqdi. Bundan ko‘rinadiki, turli xil sistemalarda vaqt turlicha o‘tadi. Eynshteyn ikki hodisaning bir vaqtligini tasdiqlash, har qanday boshqa fizikaviy tasdiqnomalar kabi, eksperimental tekshirishga muhtoj deb ko‘rsatdi. Biror sanoq sistemadagi hodisani tavsiflash uchun, uning qaerda va qachon sodir bo‘layotganligini ko‘rsatish lozim. Agar fazoning biror hodisa sodir bo‘layotgan eridagi har bir nuqtaning koordinatalarini ko‘rsatuvchi belgi hamda vaqt momentini ko‘rsatuvchi soatlarni joylashtirish mumkin bo‘lsa, bu masalani hal qilish imkonи bo‘lar edi. Koordinata belgilarini birlik masshtab yordamida ko‘rib chiqish mumkin. Soatlar sifatida davriy qaytariluvchi jarayonni yuzaga keltirayotgan istalgan sistemani olish mumkin. Fazoning turli nuqtalaridagi ikki hodisaning sodir bo‘lish vaqtlarini solishtirish uchun, bu nuqtalarda turgan soatlarning sinxron yurayotganliklariga ishonch hosil qilish lozim.

Soatlarni birga qo‘yib, ko‘rsatishlarini solishtirilgandan so‘ng ularni fazoning belgilangan nuqtalarga olib borib qo‘yish bilan sinxronizatsiyani amalga oshirishi mumkinday tuyuladi. Lekin bunday usul noto‘g‘ri, chunki biz soatlarni bir erdan ikkinchi erga ko‘chirish, ularning yurishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini bilmaymiz. SHuning uchun soatlarning avval o‘z o‘rinlariga olib borib qo‘yib, so‘ng ularning ko‘rsatishlarini solishtirib ko‘rish lozim. Buni soatlarning biridan

ikkinchisiga yorug‘lik signalini yuborish yo‘li bilan bajarish mumkin. A nuqtadan  $t_1$  momentda ( $A$  dagi soat bo‘yicha) yorug‘lik signali  $B$  nuqtaga qo‘yilgan ko‘zguga yuborilib, undan qaytib yana  $A$  nuqtaga  $t_2$  momentda etib keladi deb faraz qilaylik. Agar signalning  $B$  nuqtaga etib borish momentidagi soatning ko‘rsatish vaqtি  $t = (t_1 + t_2)/2$  ga teng bo‘lsa,  $B$  dagi soatni  $A$  dagi soat bilan sinxron deb hisoblash lozim. Bunday solishtirishni  $K$  sistemaning turli nuqtalariga o‘rnatalgan hamma soatlar uchun o‘tkazish zarur. Agar  $A$  va  $B$  nuqtalardagi soatlar bo‘yicha hisoblangan vaqlar teng bo‘lsa, shu nuqtalardagi hodisalarini  $K$  sistemada bir vaqtida o‘tdi deyish mumkin.

$K'$  sistemadagi va shuningdek, istalgan boshqa inersial sanoq sistemadagi hamma soatlar ham shunga o‘xshash sinxronlashtiriladi. Sinxronlashtirishni amalga oshirishda tezligi hamma inersial sanoq sistemalarda bir xil bo‘lgan yorug‘lik signalilan foydalaniлади. SHuning uchun ham soatlarning yurishini sinxronlashtirishda faqat yorug‘lik signalidan foydalaniлади. Ma’lumki, yorug‘lik tezligi eng katta chegaraviy tezlik hisoblanadi. Hech qanday signal va hech qanday bir jismning ikkinchi jismga ta’siri yorug‘lik tezligidan katta tezlik bilan tarqala olmaydi. YOrug‘lik tezligining hamma sanoq sistemalarida bir xil bo‘lishi yuqoridaли hol bilan tushuntiriladi. Nisbiylik prinsipiiga asosan tabiat qonunlari hamma sistemalyarda bir xil bo‘lishi lozim. Signalning tezligi chegaraviy qiymatdan katta bo‘la olmasligi haqidagi dalil ham tabiat qonunidir. SHuning uchun chegaraviy tezlik qiymati hamma sanoq sistemalarida bir xil bo‘lishi lozim.

YAna  $K$  va  $K'$  inersional sanoq sistemalarini ko‘rib chiqamiz ( $K'$  sistema  $K$  ga nisbatan  $\vec{v}$  tezlik bilan harakatlanadi). Koordinata o‘qlarini 26.5-rasmida ko‘rsatilgандай qilib yo‘naltiramiz. Biror hodisaga  $K$  sistemada  $x, y, z, t$  – kordinata va vaqt qiymatlari,  $K'$  sistemada esa –  $x', y', z', t'$  qiymatlari mos kelsin. Klassik fizikada vaqt ikkala sistemada birday utadi, ya’ni  $t = t'$  deb hisoblanadi Agar  $t = t' = 0$  momentda ikkala sistemaning koordinata boshlari ustma-ust tushgan bo‘lsa, hodisaning ikkala sistemadagi koordinatalari orasida quyidagi munosabat mavjud bo‘лади:

$$\left. \begin{array}{l} x = x' + vt' = x' + vt \\ y = y' \\ z = z' \\ t = t' \end{array} \right\} \quad (16.1)$$

(16.1) tenglamalar to‘plami *Galiley almashtirishlari* nomi bilan yuritiladi. Ulardan klassik mexanikaning tezliklarini qo‘shish qonuni kelib chiqadi, ya’ni:

$$u_x = u'_x + v; \quad u_y = u'_y; \quad u_z = u'_z. \quad (16.2)$$

Bu qonun yorug'lik tezligining o'zgarmaslik prinsipiga mos emasligini ko'rish qiyin emas. Haqiqatdan ham, agar yorug'lik signali  $K'$  sistemada  $c$  ( $u'_x = c$ ) tezlik bilan tarqalayotgan bo'lsa, u holda (16.3) ga asosan  $K$  sistemada signal tezligy  $u_x = c + v$  ga teng bo'ladi, ya'ni  $c$  dan ortib ketadi. Demak, Galiley almashtirishlarini boshqa formulalar bilan almashtirish lozim. Bu formulalarni topish qiyin emas.

Fazo bir jinsli bo'lidan almashtirish formulalari koordinata boshini ko'chirish (ya'ni  $x$  ni  $x + v$  va h.k. ga almashtirish) bilan o'zgarmasligi lozim, degan xulosa chiqadi. Bu shartni faqat chiziqli almashtirishlarga qanoatlanadir. Koordinata o'qlarini 26.5-rasmida ko'rsatilganday, tanlanganda,  $y=0$  tekislik  $y'=0$  tekislik bilan,  $z=0$  tekislik esa  $z'=0$  tekislik bilan ustma-ust tushadi. Demak,  $y$  va  $y'$  koordinatalari faqat

$$y = \varepsilon y'$$

munosabat bilan bog'langan bo'lishi mumkin.  $K$  va  $K'$  sistemalarning to'liq teng kuchliligi sababli, birinchi holdagi  $\varepsilon$  ning o'zi ishtirok etgan  $y' = \varepsilon y$  munosabat o'rinli bo'ladi. Ikkala munosabatni o'zaro ko'paytirib  $\varepsilon^2 = 1$  ga ega bo'lamiz. Bundan  $\varepsilon = \pm 1$  bo'ladi. Musbat ishora bir tomonga yo'nalgan  $y$  va  $y'$  o'qlariga, manfiy ishora esa qarama-qarshi yo'nalgan o'qlarga tegishlidir. O'qlarni bir xil yo'naltirib,

$$y = y' \quad (16.4)$$

ga ega bo'lamiz. Xuddi shunday mulohazalardan

$$z = z' \quad (16.5)$$

ni hosil qilamiz.

$x$  va  $t$  lar uchun almashtirish formulasini topaylik.  $K$  sistemaning koordinata boshi  $K$  sistemada  $x=0$ ,  $K'$  sistemada esa  $x' = -vt'$  ga ega. Demak,  $x' + vt'$  nolga peng bo'lganda  $x$  koordinata ham nolga tenglashadi. Buning uchun chiziqli almashinish quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi lozim:

$$x = \gamma(x' + vt'). \quad (16.6)$$

SHunga o'xshash  $K'$  sistemaning koordinata boshi  $K'$  sistemada  $x' = 0$  koordinataga,  $K$  sistemasida  $x = vt$  koordinataga ega bo'ladi.

Bundan:

$$x = \gamma(x - vt) \quad (16.7)$$

ekanligi kelib chiqadi.

$K$  va  $K'$  sistemalarning to‘liq teng kuchliligidan har ikkala tenglamada ham faqat birligining proporsionallik koeffitsientining o‘zi ishtirok etishi kelib chiqadi (bu formulalarda  $v$  ning ishorasi har xilligi sistemalarning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanayotganligi natijasidir; agar sistema  $K$  ga nisbatan o‘ngga qarab harakat qilsa,  $K$  sistema  $K'$  ga nisbatan chapga qarab harakatlanadi).

Hodisaning  $K'$  sistemada ma’lum bo‘lgan  $x'$  koordinata va  $t'$  vaqtlar yordamida  $K$  sistemadagi  $x$  koordinatasini (16.6) formula orqali aniqlash mumkin. Hodisaning  $K$  sistemadagi  $t$  vaqtini aniqlash uchun (16.6) va (16.7) tenglamalardan  $x$  ni yo‘qotib, hosil bo‘lgan ifodani  $t$  ga nisbatan echiladi. Natijada:

$$t = \gamma \left[ t' + \frac{x'}{v} \left( 1 - \frac{1}{\gamma^2} \right) \right] \quad (16.8)$$

hosil bo‘ladi.

Proporsionallik koeffitsienti  $\gamma$  ni topish uchun yorug‘lik tezligining o‘zgarmaslik prinsipidan foydalanamiz. Vaqt  $t=t'=0$  bo‘lgan paytda (ikkala sistemada vaqt koordinata boshlari ustma-ust tushgan paytdan boshlab hisoblanadi)  $x$  o‘qi yo‘nalishida  $x=a$  koordinatali nuqtada turgan ekranda chaqnash hosil qiladigan yorug‘lik signali beriladi deb faraz qilaylik. Bu hodisa (chaqnash)  $K$  sistemada  $x=a$ ,  $t=b$ .  $K'$  sistemada esa  $x'=a'$ ,  $t'=b'$  koordinatalar bilan belgilanadi. Hodisa koordinatalarini  $a=cb$ ,  $a'=cb'$  ligidan foydalanib, ikkala sistemada quyidagi

$$x=cb, \quad t=b \quad \text{va} \quad x'=cb', \quad t'=b'.$$

ko‘rinishda yozish mumkin. Bu qiymatlarni (26.6) va (26.7) formulalarga qo‘yib:

$$\begin{aligned} cb &= \gamma(cb' + vb') = \gamma(c + v)b'; \\ cb' &= \gamma(cb - vb) = \gamma(c - v)b \end{aligned} \quad (16.9)$$

ga ega bo‘lamiz. Ikkala tenglamani o‘zaro ko‘paytirsak,

$$c^2 = \gamma^2(c^2 - v^2)$$

munosabat kelib chikadi. Bundan

$$\gamma = \frac{1}{\sqrt{1 - (v^2/c^2)}} \quad (16.10)$$

qiymatni olamiz.

Bu qiymatni (16.6) va (16.8) larga qo‘yilsa,  $x$  va  $t$  larning eng so‘nggi ko‘rinishdagi formulasi hosil bo‘ladi. Ularga (16.4) va (16.5) formulalarni qo‘shib, quyidagi tenglamalar to‘plamiga ega bo‘lamiz:

$$\left. \begin{array}{l} x = \frac{x' + vt'}{\sqrt{1 - (v^2/c^2)}}, \\ y = y', \\ z = z' \\ t = \frac{t' + (v/c^2)x'}{\sqrt{1 - (v^2/c^2)}} \end{array} \right\} \quad (16.11)$$

$K'$  sistemada o‘lchangan koordinata va vaqtdan (16.11) formula yordamida  $K$  sistemadagi koordinata va vaqtga (qisqacha  $K'$  sistemadan  $K$  sistemaga) o‘tiladi. Agar (16.11) tenglamalarni shtrixlangan miqdorlarga nisbatan echilsa,  $K$  sistemadan  $K'$  sistemaga o‘tish uchun kerak bo‘lgan almashtirish formulalari hosil bo‘ladi:

$$\left. \begin{array}{l} x' = \frac{x - vt}{\sqrt{1 - (v^2/c^2)}}, \\ y' = y, \\ z' = z \\ t' = \frac{t - (v/c^2)x}{\sqrt{1 - (v^2/c^2)}} \end{array} \right\} \quad (16.12)$$

$K$  va  $K'$  sistemalarning teng kuchga egaligini nazarda tutilganda (16.12) formulaning (16.11) formuladan faqat  $v$  ning oldidagi ishora bilan farq qilishi kutilgandanidek kelib chiqdi. (16.11) va (16.12) formulalar *Lorents almashtirishlari* deb yuritiladi. Lorents almashtirishlari  $v \ll c$  bo‘lgan holda Galiley almashtirishlari (16.2) ga o‘tishini ko‘rish qiyin emas. SHunday qilib, Galiley almashtirishlari yorug‘lik tezligiga nisbatan ancha kichik bo‘lgan tezliklar uchun o‘z qiymatini saqlab qoladi.  $v > c$  bo‘lgan hollarda  $x$ ,  $t$ ,  $x'$  va  $t'$  lar uchun (16.11) va (16.12) ifodalar mavhum bo‘lib qoladi. Bu hol yorug‘likning bushlikdagi tezlididan katta bo‘lgan tezlikning y<sup>2</sup> qilgiga mos keladi. Hatto  $c$  tezlik bilan harakat qilayotgan sanoq sistemadan foydalanish mumkin emas, chunki  $v = c$  bo‘lganda  $x$  va  $t$  larning formulalaridagi maxraj nolga teng bo‘lib qoladi.

#### Nazorat savollar

1. Umumiy nisbiylik nazariyasining prinsiplari nima?
2. Gravitasion maydon va fazo-vaqt metrkasi deganda nimani tushunasiz?
3. Umumiy nisbiylik nazariyasining eksperimental tasdiqlanishi nima?
4. Umumiy nisbiylik nazariyasi va astrofizika bog’liqligi qanday tushuntiriladi?

## AMALIY MASHG'ULOT

### **1-mavzu: Vektorlar algebrasiga doir masalalar yechish.**

Ushbu mavzuda vektorlar algebrasiga vector operatorlarga doir masalalar yechiladi. Bu yerda yuqorida ma’ruza mashg’lotida keltirilgan vektorlar algebrasi va vektorlar operatorlarining qonuniyatlaridan foydalaniladi.

#### **1.1-Masala.Quyidagi tengliklarni isbotlang.**

$$1. [k[dL]] + [d[Lk]] + [L[kd]] = 0$$

$$2. ([\vec{ab}][\vec{cd}]) = (\vec{ca})(\vec{db}) - (\vec{cb})(\vec{da})$$

$$3. [[\vec{ab}], [\vec{cd}]] = \vec{c}(\vec{d}[\vec{ab}]) - \vec{d}(\vec{c}[\vec{ab}])$$

$$4. [\vec{ab}]^2 = a^2 b^2 - (\vec{ab})^2$$

$$5. [\vec{a}, (\vec{a}, \varphi)] = 0, \vec{a}[\vec{ab}] = 0$$

$$6. (\vec{a}[\vec{bc}]) = (\vec{b}[\vec{ca}]) = (\vec{c}[\vec{ab}])$$

$$7. (\vec{c}[\vec{ab}]) = \vec{a}(\vec{cb}) - \vec{b}(\vec{ca})$$

### **2-mavzu: Vektor operatorlarga doir masalalar yechish.**

Ushbu mavzuda vector operatorlarga doir masalalar yechiladi. Bu yerda yuqorida ma’ruza mashg’lotida keltirilgan vektorlar operatorlari (gradient,divergensiya, rotor, nabla)ning qonuniyatlaridan hamda Ostrogradiskiy – Gauss va Stoks teoremlaridan foydalaniladi.

#### **1.1-Masala.Quyidagi tengliklarni isbotlang.**

$$1. \operatorname{div} \operatorname{rot} \vec{a} = 0$$

$$2. \operatorname{rot} \operatorname{rot} \vec{a} = \operatorname{grad} \operatorname{div} \vec{a} - \nabla^2 \vec{a}$$

$$3. \operatorname{div} \vec{r} = 3 (\text{ buyerda } \vec{r} \text{-radiusli vector})$$

$$4. \operatorname{rot} \operatorname{grad} \varphi = 0$$

$$5. \operatorname{div} \operatorname{rot} \vec{a} = 0$$

$$6. \operatorname{div} \operatorname{grad} \varphi = \nabla^2 \varphi$$

$$7. \operatorname{rot} \operatorname{rot} \vec{a} = \operatorname{grad} \operatorname{div} \vec{a} - \nabla^2 \vec{a}$$

8.  $\text{grad}(\varphi\psi) = \varphi\text{grad}\psi + \psi\text{grad}\varphi$

9.  $\text{rot}(\varphi\vec{a})=?$  nimaga tengligini aniqlansin?

10.  $\text{div}(\varphi\vec{a})=?$  Nimaga tengligi aniqlansin?

11.  $\text{div}[\vec{a}\vec{b}] = \vec{b}\text{rot}\vec{a} - \vec{a}\text{rot}\vec{b}$  munosabatni isbotlang.

### AMALIY MASHG'ULOT

**3-mavzu:** Elektrostatik maydon uchun Maksvell tenglamalarining to'liq sistemasiga doir masalalar yechish.


Ushbu mavzuda elektr maydonini hisoblashda Maksvell tenglamalar sistemasining integral va differinsial ko'rinishidan foydalaniladi.

**3.1-Masala.** Quyidagi tengliklarni keltirib chiqaring.

$$\text{a)} \vec{E} = \frac{1}{4\pi\epsilon} \frac{q\vec{r}}{r^3},$$

$$\text{b)} \Phi_1 - \Phi_2 = \frac{q}{4\pi\epsilon} \left( \frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2} \right),$$

$$\text{b)} \Phi = \frac{q}{4\pi\epsilon r}.$$




5.1-rasm

**3.2-Masala.** Quyidagi tengliklarni keltirib chiqaring. Sirti bo'yicha zaryad zichlik bilan bir tekis zaryadlangan a radiusli metal sferaning tashqarisidagi maydon uchun quyidagi formulalar topilsin.

$$\text{a)} \vec{E} = \frac{1}{4\pi\epsilon} \frac{q\vec{r}}{r^3},$$

$$\text{b)} \Phi_1 - \Phi_2 = \frac{q}{4\pi\epsilon} \left( \frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2} \right),$$

$$\text{b)} \Phi = \frac{q}{4\pi\epsilon r}.$$



3.2-rasm

**3.3-Masala.** Quyidagi tengliklarni keltirib chiqaring. Hajmi bo'yicha zaryad zichlik bilan bir tekis zaryadlangan a radiusli metal sferaning tashqarisidagi maydon uchun quyidagi formulalar topilsin.

$$a) \vec{E}_T = \frac{1}{4\pi\epsilon} \frac{q \vec{R}}{R^3} = \frac{1}{3} \frac{\rho}{\epsilon} \frac{a^3 \vec{R}}{R^3},$$

$$b) \vec{E}_u = \frac{1}{4\pi\epsilon} \frac{q \vec{r}}{a^3} = \frac{1}{3} \frac{\rho}{\epsilon} \vec{r},$$

$$b) \Phi_1 - \Phi_2 = \frac{1}{3} \frac{\rho}{\epsilon} a^3 \left( \frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right),$$


$$r) \Phi_T = \frac{1}{3} \frac{\rho}{\epsilon} \frac{a^3}{R}, \Phi_u = \frac{1}{6} \frac{\rho}{\epsilon} (3a^2 - r^2),$$

$$d) \Phi_s = \frac{1}{3} \frac{\rho}{\epsilon} a^3.$$

**3.4 -Masala.** Uzunligi bo'yicha zaryad zichlik bilan bir tekis zaryadlangan cheksiz o'tkazgich maydoni uchun quyidagi formulalar isbotlangasini.

$$\vec{E} = \frac{1}{2\pi\epsilon} \frac{\tau \vec{r}}{r^3},$$

$$\Phi_1 - \Phi_2 = \frac{\tau}{2\pi\epsilon} \ln \frac{r_2}{r_1}$$



3.3-rasm


**3.4 - Masala.** Sirti bo'yicha zaryad zichlik bilan bir tekis zaryadlangan a radiusli va L uzunlikdagi slindr maydoni uchun quyidagi formulalar keltirib chiqarilsin.

$$\vec{E} = \frac{q}{2\pi\epsilon_0 l} \frac{\vec{r}}{r^2} = \frac{\sigma}{\epsilon_0} \frac{\alpha \vec{r}}{r^2},$$

$$\varphi_1 - \varphi_2 = \frac{\sigma}{\epsilon_0} \alpha \ln \frac{r_2}{r_1},$$

$$\varphi = \varphi_s - \frac{\sigma}{\epsilon_0} \alpha \ln \frac{r}{a}.$$

**3.5- Masala. Quyidagi tengliklarni keltirib chiqaring.**  $\sigma$  sirt zichligi bilan zaryadlangan cheksiz tekislikning va parallel tekisliklar (rasmga qarang) elektr maydon kuchlanganligini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.



3.4-rasm

## AMALIY MASHG'ULOT

### **4-mavzu: Elektrostatik maydon uchun chegaraviy shartlarga doir masalalar yechish.**

Ushbu mavzuda elektr maydonini hisoblashda Maksvell tenglamalar sistemasining integral va differinsial ko'rinishidan foydalaniladi.

**4.1-Masala.** Uzunligi bo'yicha  $\tau$  chiziqli zichlik bilan bir tekis zaryadlangan  $r$  radiusli halqani uning markazidan o'tuvchi o'qda yotuvchi va halqa markazidan  $L$  masofadagi nuqtaning elektr maydon kuchlanganligini hisoblang.

**4.2-Masala.** Sirti bo'yicha  $\sigma$  zaryad zichligi bilan bir tekis zaryadlangan  $r$  radiusli metal sferanig sirtidagi h masofadagi elektr maydon kuchlanganligi Ostrogradskiy-Gauss teoremasi orqali keltirib chiqaring.

**4.3-Masala.** Nuqtaviy zaryadning undan biror  $r$  masofadagi maydon kuchlanganligi va potensialini Ostrogradskiy-Gauss teoremasi orqali keltirib chiqaring.

**4.4-Masala.** Sirt bo'yicha  $\sigma$  zichlik bilan bir tekis zaryadlangan parallel plastinka orasidagi va tashqarisidagi maydon kuchlanganligi va potensiali topilsin. Zaryad zichliklari  $+\sigma_1$  va  $-\sigma_2$  ga teng deb olinsin.

**4.5-Masala.** Sirti bo'yicha  $\sigma$  zichlik bilan bir tekis zaryadlangan  $a$  radiusli metall sferaning tashqarasidagi maydonning  $\vec{E}$ , kattaliklari topilsin?. Hamda sfera sirtidan o'tishda maydonni sakrab o'zgarishi topilsin?

**4.6-Masala.** Sirti bo'yicha bir tekis  $\sigma$  zichlik bilan zaryadlangan  $a$  radiusli  $l$  uzunlikdagi silindr maydoni uchun  $\vec{E}$  kattalik topilsin? Silindr sirtidan o'tishda chegaraviy shartning bajarilishi tekshirilsin?

**4.7-Masala.** Sirti bo'yicha bir tekis  $\sigma$  zichlik bilan zaryadlangan  $a$  radiusli  $l$  uzunlikdagi silindr maydoni uchun  $\vec{E}$ ,  $\varphi_1 - \varphi_2$ ,  $\varphi$  va  $\varphi_{srti}$  kattaliklar topilsin? Silindr sirtidan o'tishda chegaraviy shartning bajarilishi tekshirilsin?


## AMALIY MASHG'ULOT

**5-mavzu: Magnitostatik maydon uchun Maksvell tenglamalarining to'liq sistemasiga doir masalalar yechish.**


Ushbu mavzuda elektr maydonini hisoblashda Maksvell tenglamalar sistemasining integral va differinsial ko'rinishidan foydalaniladi.

5.1. Chekli L uzunlikdagi chekli tok magnit maydoninigundan h masofada yotuvchi nuqtadagi kuchlanganligini keltirib chiqaring.

$$H = \frac{I}{4\pi h} (\sin\alpha_1 + \sin\alpha_2) = \frac{I}{4\pi h} (\cos\theta_1 - \cos\theta_2)$$



5.2.  $a$  radiusli aylanma  $I$  tok markazidan o'tuvchi o'qning undan  $h$  masofada yotuvchi nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi va induksiya vektori topilsin?



5.2-rasm

5.3. Tomonlari  $a$  va  $b$  ga teng bo'lgan to'rtburchak shakldagi  $I$  tokli o'tkazgich markazidagi magnit maydon kuchlanganligi topilsin?

5.4. Tomonlari  $a$  ga teng bo'lgan muntazam uchburchak shakldagi  $I$  tokli o'tkazgich markazidagi magnit maydon kuchlanganligi topilsin?

5.6. Tomonlari  $a$  ga teng bo'lgan muntazam oltiburchak shakldagi  $I$  tokli o'tkazgich markazidagi magnit maydon kuchlanganligi topilsin?

5.7. Tok kuchlari  $I_1 = I_2 = I$  ga teng bo'lgan ikkita parallel tokli o'tkazgichlardan bir tomoniga yo'nalgan toklar oqib o'tsa va ular orasidagi masofa  $r$  ga teng bo'lsa,  $r_1 > r$  hamda  $r_2 < r$  masofalardagi nuqtada magnit maydon kuchlanganlik vektorini aniqlang?

- 5.8.  $a$  radiusli aylanma  $I$  tok markazidan o'tuvchi o'qning undan qanday masofada magnit maydon kuchlanganligi va induksiya vektorini maksimal qiymatda bo'ladi?
- 5.9. Cheksiz uzunlikdagi chiziqli tok magnit maydonining undan  $a$  masofada yotuvchi nuqtadagi maydon induksiya vektori va kuchlanganligi aniqlansin?
- 5.10. Chekli tokli o'tkazgichdan  $2A$  tok o'tmoqda. O'tkazgichdan  $10sm$  masofada magnit maydon kuchlanganligini toping.

### AMALIY MASHG'ULOT

#### **6- mavzu: Magnitostatik maydon uchun chegaraviy shartlarga doir masalalar yechish.**


Ushbu mavzuda elektr maydonini hisoblashda Maksvell tenglamalar sistemasining integral va differinsial ko'rinishidan foydalaniladi.

6.1.  $l$  uzunlikdagi tokli o'tkazgichdan halqadan  $I$  tok o'tmoqda. Halqaning radiusi  $R$  bo'lsa, halqa markazidagi magnit maydon induksiya vektorini Bio-Savar-Laplas qonunidan keltirib chiqaring.

6.2.  $l$  uzunlikdagi tokli halqadan  $I$  tok o'tmoqda. Halqaning radiusi  $2R$  bo'lsa, halqa markazidan o'tuvchi o'qda yotuvchi nuqtani halqa markazidan  $L$  nuqtadagi magnit maydon induksiya vektorini Bio-Savar-Laplas qonunidan keltirib chiqaring.

6.3.  $l$  uzunlikdagi tokli o'tkazgichdan halqadan  $I$  tok o'tmoqda. Halqaning radiusi  $2R$  bo'lsa, halqa markazidagi magnit maydon induksiya vektorini Bio-Savar-Laplas qonunidan keltirib chiqaring.

6.4. Bir jinsli magnit maydoni  $B = (0,20,0)mT$  ko'rinishda berilgan bo'lib, bu maydonga  $14sm$  radiusli yarimhalqa



6.1-rasm

2A tokli o'tkazgich joylashtirilgan. Bu tokli o'tkazgichga maydon tomonidan ta'sir ta'sir etuvchi kuchni toping.

6.5. Yo'y shaklidagi  $20sm$  uzunlikdagi o'tkazgichdan  $4A$  tok o'tmoqda. Yoyning radiusi  $6sm$  bo'lsa, yo'y markazidagi magnit maydon induksiya vektorini toping.

6.6. I tok oqayotgan N o'ramli cheksiz uzun solenoid ichidagi magnit maydon

$$H = \frac{NI}{l} = nI$$

kuchlanganligini keltirib chiqaring.

## AMALIY MASHG'ULOT

**7-8-mavzu: To'lqin tenglamasi. Elektromagnit to'lqinlar va ularni tarqalishiga doir masalalar yechish.**

Ushbu mavzuda elektr maydonini hisoblashda Maksvell tenglamalar sistemasining integral va differinsial ko'rinishidan foydalaniladi.

**7.1-masala.** Ikkita bir xil chastotali, o'zaro perpendikulyar yo'nalishlar bo'yicha chiziqli qutblangan, amplitudalari  $E_{01}$ ,  $E_{02}$  fazalar farqi bo'lgan yassi monoxramatik to'lqin bir xil yo'nalaishdatarqaladi. Natijaviy to'lqinning qutblanishi aniqlansin.

**7.2-masala.** Tushush tekisligining normali bilan  $E$  vektori  $\alpha$  burchak ostida hosil qiluvchi chiziqli yassi monoxramatik to'lqinning qaytish koeffitsienti aniqlansin. Olingan natijadan foydalanib tabiiy yorug'likning qaytish koeffitseinti ham topilsin.

**7.3-masala.** To'lqin tarqalish yo'nalishidagi d $Z$  yo'lda yo'qotgan energiyasi shu yo'lda ajralovchi issiqlik miqdoriga tengligi ko'rsatilsin.

**7.4-masala.** To'la ichki qaytishda elektromagnit to'lqinning muhit ichida so'nishi aniqlansin.

**7.5-masala.** Qalinligi  $d$ , dielektriksindiruvchanligi  $\epsilon$  bo'lgan yassi parallel plastinkadan qaytuvchi va undan o'tuvchi elektromagnit to'lqinlar amplitudasi topilsin va qaytuvchi to'lqinning minimal bo'lish sharti aniqlansin.

## AMALIY MASHG'ULOT

**9-mavzu: O'zgarmas elektr va magnit maydonlarida zaryadli zarrachalarning harakatiga doir masalalar yechish.**

**9.1-masala.** Bir jinsli elektr maydoniga  $\vec{B}$  kuchlanganlik vektoriga perpendikulyar yo'nalishda  $\vec{v}_0$  boshlang'ich tezlik bilan kiritilgan elektronning harakat qonuni va trayektoriya tenglamasi topilsin.


**9.2-masala.** Bir jinsli magnit maydoniga  $\vec{B}$  kuchlanganlik vektoriga perpendikulyar yo'nalishda  $\vec{v}_0$  boshlang'ich tezlik bilan kiritilgan elektronning harakat qonuni va trayektoriya tenglamasi topilsin.

**9.3-masala.** Elektron kuchlanganligi  $10V/sm$  bo'lgan bir jinsli elektr maydoniga maydon yo'nalishi bo'ylab  $10^4 \text{ rad/s}$  tezlik bilan kiritilgan. Uning to'xtaguncha bosib o'tgan yo'li va harakatlanish vaqtini aniqlansin. ( $0,3\text{m}$ ,  $5,7 \cdot 10^{-8}\text{s}$ )

**9.4-masala.** Elektr maydoniga perpendikulyar yo'nalishda  $\vec{B}_0$  boshlang'ich tezlik bilan kiritilgan elektronning  $L$  yo'lni o'tib, maydondan chiqib ketishida boshlang'ich yo'nalishdan og'ish burchagi  $m$ ,  $L$ ,  $e$   $\vec{B}_0$  va  $E$  lar orqali aniqlansin. ( $tga = eEL/mv^2$ )

**9.5-masala.** Induksiyasi  $1\text{mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonining kuch chiziqlari yo'nalishiga  $30^\circ$  burchak ostida praton uchib kirdi. Bunda pratonning vint qadamni uzunligini va vintning radiusini aniqlang. ( $5\text{mm}, 5,3\text{sm}$ )

**9.6-masala.**  $\square$ -zarracha kuchlanishi  $U$  bo'lgan elektr maydonidan tezlashtirilib, induksiyasi  $B$  va qalinligi bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga gorizontal yo'nalishda maydon kuch



chiziqlariga tik ravishda kirib borgan bo'lsa,  $\square$ -zarrachani dastlabki yo'nalishidan og'ish burchagi  $\square$  ni toping. ( $\arcsin(\text{dB}(\text{e}/\text{mU})^{-1/2})$ )

## AMALIY MASHG'ULOT

**10-mavzu:** O'zgaro'vchan elektr va magnit maydonlarida zaryadli zarrachalarning harakatiga doir masalalar yechish.

**10.1-masala.** Elektrostatik maydon uchun quyidagi qaysi shrt bajarilishi kerak?

- A. Zaryadlar qo'zg'almas va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.
- B. Zaryadlar qo'zg'almas va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi.
- C. Zaryadlar qo'zg'aladi va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

**10.2-masala.** Magnitostatik maydon uchun quyidagi qaysi shrt bajarilishi kerak?

- A. Doimiy toklar mavjud va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.
- B. Doimiy toklar mavjud va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi.
- C. Doimiy va o'zgaruvchan toklar mavjud va barcha kattaliklar vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

**10.3-masala.**  $\vec{\square} = \frac{\square}{\square} = \textcolor{blue}{0}$  qanday maydonga tegishli? A. Magnit maydonga B. Elektr maydonga. C. Elektromagnit maydonga. D. Kvazistatsionar maydonga.

**10.4-masala.**  $\square \square \square \vec{\square} = \vec{\square}$  qanday maydonga tegishli.

A. Magnit maydonga B. Elektr maydonga. C. Elektromagnit maydonga. D. Kvazistatsionar maydonga.

**10.5-masala.**  $5. \square \square \square \vec{\square} = \textcolor{blue}{0}$  tenglama qanday maydonga tegishli? A. Elektrostatik maydonga. B. Magnitostatik maydonga. C. Kvazistatsionar maydonga. D. elektromagnit maydonga.

**10.6-masala.** Ushbu  $\vec{\nabla} = 0$  shartga ko'ra elektromagnit maydon qanday maydonga aylanadi?

- A. Uyurmaviy elektr maydonga. B. Elektrostatik maydonga C. Magnitostatik maydonga.D. O'zgaruvchan elektromagnit maydonga.

**10.7-masala.** Bir jinsli magnit maydoniga burchak ostida uchib kirgan zaryadli zarrachaning harakat trayektoriyasi qanday bo'ladi? A. To'g'ri chiziq. B. Parabola. C. Aylana. D. Vintsimon.

**10.8-masala.** Bir jinsli o'zgarmas elektr maydoniga burchak ostida uchib kirgan zaryadli zarrachaning harakat trayektoriyasi qanday bo'ladi? A. To'g'ri chiziq. B. Parabola. C. Aylana. D. Vintsimon.

**10.9-masala.** Bir xil yonalgan bir jinsli elektr va magnit maydoniga perpendikulyar yo'nalishda uchib kirgan musbat zaryadli zarracha qandy trayektoriya bo'ylab harakatlanadi. A. To'g'ri chiziq. B. O'sib boruvchi qadam bilan vintsimon. C. Aylana. D. Vintsimon.

### SIMENAR MASHG'ULOTI.

**1-mavzu: Elektromagnit maydon potensallari va ular uchun Dalamber, Puasson, Laplas tenglamalari**

**Reja:**

1. Elektromagnit maydon potensiallari
2. Elektromagnit maydon uchun D'alamber tenglamasi
3. Elektromagnit maydon uchun Puasson tenglamasi.
4. Elektromagnit maydon uchun Laplas tenglamasi

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan elektromagnit maydonni xarakterlovchi kattaliklar ya'ni maydon potensiali bo'yicha umumiy tushunchalar beradi. Elektromagnit maydon uchun va uning xususiyatlarini to'liq o'rghanish uchun D'alamber ( $\square = \Delta - \frac{1}{\rho^2} \frac{\partial^2}{\partial r^2}$ ), Puasson ( $\Delta\Phi = -f$ ) va Laplas ( $\Delta\Phi = 0, f = 0$ ) tenglamalari mavjud bo'lib, bu tenglamalarni keltirib chiqaradi va

uning fizik , matemati mohiyatini yoritib beradi. Talabaning bilimini bahaolash uchun quyidagi savollar bilan tekshirib ko’riladi:

1. Elektromagnit maydonni hosil qiluvchi manba nima?
2. Elektromagnit maydon potensiallari deganda nimani tushunasiz?
3. Elektromagnit maydon uchun D’alamber tenglamasini fizik mohiyatini yoritib bering.
4. Elektromagnit maydon uchun Puasson tenglamasini fizik mohiyatini yoritib bering.
5. Elektromagnit maydon uchun Laplas tenglamasini fizik mohiyatini yoritib bering.

### **SIMENAR MASHG’ULOTI.**

**2-mavzu: Elektrostatik maydondagi o’tkazgichlar.O’tkazgich potensial bilan zaryad orasidagi bog’lanish. Elektr sig’imi.Kondensatorlar.**

**Reja:**

1. Elektrostatik maydondagi o’tkazgichlar
2. O’tkazgich potensial bilan zaryad orasidagi bog’lanish.
3. Elektr sig’imi.Kondensatorlar.

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan elektrostatika qonunlarini yoritib berdi. Elektrostatik maydonga kiritilgan o’tkazgichning elektr maydon kuchlanganliga, potensiali va elektr sig’imi haqida ma’lumotlar beradi va uning fizik mohiyatini yoritib beradi.

### **SIMENAR MASHG’ULOTI.**

**3-mavzu: Elektrostatik maydon energiyasi. Zaryadlarning o’zaro ta’sir energiyasi.**

**Reja:**

1. Elektrostatik maydon energiyasi.
2. Zaryadlarning o'zaro ta'sir energiyasi
3. Elektrostatik maydonning mexanik kuchlari.

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan elektrostatika qonunlarini yoritib berdi. Elektrostatik maydon energiyasi, zaryadlarning o'zarota'sir energiyasi va Elektrostatik maydonning mexanik kuchlari haqida ma'lumotlar beradi va uning fizik mohiyatini yoritib beradi.

### **SIMENAR MASHG'ULOTI.**

**4-mavzu: Magnitostatik maydonning magnitiklari. Magnitlanish vektori. Magnitik muhitdagi magnit mayon. Molekulyar toklar.**

**Reja:**

1. Magnitostatik maydon energiyasi.
2. Parallel toklarni o'zaro ta'sir energiyasi
3. Magnitostatik maydonning mexanik kuchlari.

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan magnitostatika qonunlarini yoritib berdi. Magnitostatik maydon energiyasi, toklarning o'zaro ta'sir energiyasi va magnitostatik maydonning mexanik kuchlari haqida ma'lumotlar beradi va uning fizik mohiyatini yoritib beradi.

### **SIMENAR MASHG'ULOTI.**

**5-mavzu: O'zgaruvchan tokning o'tkazgich ko'ndalang kesim bo'ylab noteks taqsimlanishi. Skin effiki.**

**Reja:**

1. O'zgaruvchan tokning o'tkazgich ko'ndalang kesim bo'ylab noteks taqsimlanishi.

**2. Skin effiki.**

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan o'zgaruvchan tokning o'tkazgich ko'ndalang kesim bo'ylab noteks taqsimlanishi. Skin effiktini yoritib berdi.

**SIMENAR MASHG'ULOTI.**

**6-mavzu: Maksvell tenglamalarini elektromagnit maydon potensiallari yordamida yechish. Kechikuvchi va ilgariluvchi potensiallar**

**Reja:**

**1. Maksvell tenglamalarini elektromagnit maydon potensiallari yordamida yechish.**

**2. Kechikuvchi va ilgariluvchi potensiallar**

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan Maksvell tenglamalarini elektromagnit maydon potensiallari yordamida yechish. Kechikuvchi va ilgariluvchi potensiallar yoritib berdi.

**SIMENAR MASHG'ULOTI.**

**7-mavzu: Elektromagnit to'lqinning o'tkazgich bo'ylab tarqalishi. Bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar. Volnavod va rezanotirlar.**

**Reja:**

**1. Elektromagnit to'lqinning o'tkazgich bo'ylab tarqalishi.**

**2. Bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar.**

**3. Volnavod va rezanotirlar.**

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan elektromagnit to'lqinning o'tkazgich bo'ylab tarqalishi, bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar, volnavod va rezanotirlar.

### **SIMENAR MASHG'ULOTI.**

#### **8-mavzu: Mikroskopik zaryad va mikroskopik tok zichligini o'rtachalash.**

**Reja:**

1. Mikroskopik zaryadni o'rtachalash.
2. mikroskopik tok zichligini o'rtachalash.

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan mikroskopik zaryad va mikroskopik tok zichligini o'rtachalash qonunlarini yoritib berdi.

### **SIMENAR MASHG'ULOTI.**

#### **9-mavzu: Nisbiylik nazariyasining matematik apparati.**

**Reja:**

1. **Nisbiylik nazariyasining elementlari haqida tushunchalar.**
2. **Nisbiylik nazariyasining matematik apparati.**
3. **Nisbiylik nazariyasidan kelib chiqadigan asosiy xulosalar**

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan mikroskopik zaryad va mikroskopik tok zichligini o'rtachalash qonunlarini yoritib berdi.

### **SIMENAR MASHG'ULOTI.**

#### **10-mavzu: Umumiy nisbiylik nazariyasi va astrofizika**

**Reja:**

1. Umumiy nisbiylik nazariyasining prinsiplari.
2. Gravitasion maydon va fazo-vaqt metrkasi.
3. Umumiy nisbiylik nazariyasining eksperimental tasdiqlanishi.
4. Umumiy nisbiylik nazariyasi va astrofizika.

Talaba ushbu mavzuni reja asosida yoritib beradi. Rejaga asosan mikroskopik zaryad va mikroskopik tok zichligini o'rtachalash qonunlarini yoritib berdi.

### 3. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

#### **Mustaqil ta'lism tashkil etishning shakli va mazmuni.**

“Nazariy fizika” fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'rzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konsept qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lism natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanim ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanim ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konseptlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. “Nazariy fizika” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 10 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

#### **Talabalar mustaqil ta'liming mazmuni va hajmi**

<b>T/r</b>	<b>Mustaqil ta'lism mavzulari</b>	<b>Berilgan topshiriqlar</b>	<b>Bajarilish muddati</b>	<b>Hajmi (soatlarda)</b>
1	Elektromagnit maydon impulsi va impuls momentlarining aqlanish qonunlari. Yorug'lik bosimi. Elektromagnit massa.	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	1, 2-havtalar	2
2	Doimiy toklar maydonining energiyasi. O'zinduksiya va o'zaroinduksiya koeffitsientlari	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	3-4-havtalar	2
4	Magnitostatik maydondagi mexanik kuchlar. Magnit maydoniga kiritilgan tok elementiga, elementar tokka va magnetikka ta'sir etuvchi kuchlar	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	4-5-havtalar	4
5	Kvazistatsionar tokli o't-kazgichlar sistemasida o'z-induksiyani va o'zaroin-	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	5-6-havtalar	4

*Nazariy fizika (Elektrodinamika) fanidan ilovalar*

	duksiyani hisobga olish.			
6	O'zgaruvchan tokning o'tkazgich ko'ndalang kesim bo'yab notebs taqsimlanishi.	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	6-7-haftalar	<b>4</b>
7	Elektr dipolining nurlanishi. Nurlanish intensivligi va quvvati.	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	7-8-havtalar	<b>4</b>
8	Elektromagnit to'lqinlarning bir jinsli izotrop dielektrik muhitda tarqalishi. Yassi monoxramatik to'lqin	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	8-9-havtalar	<b>4</b>
9	Qutublangan va qutblanmagan to'lqinlar. Qaytishda to'lqinning to'la qutblanishi.	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	9-10-havtalar	<b>4</b>
10	Nurlanishning klassik elektron nazariyasi. Nurlanuvchi atomning klassik modeli.	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	10-11-havtalar	<b>4</b>
11	Dielektriklar qutblanishining klassik elektron nazariyasi	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	11-12-havtalar	<b>4</b>
12	Magnetiklarning magnitlanishning klassik elektron nazariyasi	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	12-13-havtalar	<b>4</b>
13	Elektr o'tkazuvchanlikning klassik elektron nazariyasi	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	13-14-havtalar	<b>6</b>
14	Umumiy nisbiylik nazariyasining prinsiplari	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	14-15-havtalar	<b>4</b>
15	Umumiy nisbiylik nazariyasining eksperimental tasdiqlanishi	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	15-16 havtalar	<b>4</b>
16	Umumiy nisbiylik nazariyasi va astrofizika	Adabiyotlardan kaspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish.	18-19-havtalar	<b>4</b>
	<b>Jami</b>			<b>50</b>

**4. «NAZARIY FIZIKA» FANI BO`YICHA GLOSSARIY**

**Glossariy**

<b>№</b>	<b>o'zbekcha</b>	<b>ruscha</b>	<b>inglizcha</b>	<b>lug'aviy ma'nosi</b>
1	fizika	fizika	physis	fizika-grekcha “physis” so'zidan olingan bo'lib, tabiat degan ma'noni anglatadi.
2	elektrodinamika	elektrodinamika	electrodynamics	nazariy fizikaning bo'limi bo'lib, bu fanda elektr va magnit maydon hodisalari o'rGANiladi.
3	zaryad	zaryad	charge	elektr zaryad miqdori ikki xil bo'lib, musbat va manfiy bo'ladi.
4	kulon	kulon	coulomb's	elektr zaryadining 'lcov birligi bo'lib, sh. kulon sharafiga qo'yilgan
5	kuchlanganlik	naprijenost	field	masalan, elektr maydon kuchlanganligi deb, birlik musbat zaryadga maydon tomonidan ta'sir etuvchi kuchga teng bo'lgan vector kattalikdir.
6	maksvell	maksvell	maxwell's	elektromagnit maydonning nazariyasini yaratgan olim. elektromagnit maydonning fizik mohiyatini ochib bergen va o'zining tenglamalar sistemasini yaratgan ingliz olimi.
7	tenglama	urovneniye	equation	birior fizik qonuniyatning matematik ifodasi.

*Nazariy fizika (Elektrodinamika) fanidan ilovalar*

8	divergensiya	divergensiya	divergence	tarqalish, sochilish, oqim yo'nalishini bildiradi.
9	rotor	rotor	rotors	uyurmaviy degan ma'noni anglatadi.
10	magnit	magnit	magnetic	magnit maydonini manbai.
11	nazariya	teoriya	theory	biror fizik jarayonni tajribada aniqlangan natijalariga qarab uning qonuniyati ya'ni nazariyasi ishlab chiqiladi.
12	energiya	energiya	energy	mexanizmni ish bajara olish qoblyatiga energiya deyiladi. tabiatda energiyaning turlar ko'p bolib, bu energiyalar bir biriga aylanaib turadi.
13	oqim	potok	flow	oqim so'zining ma'nosini shuki biror kattalikni yo'nalishini ko'rsatadi.
14	elektrostatika	elektrostatika	electrostatics	nuqtaviy qo'zg'almas zaryadlar atrofida hosil bo'lgan elektr maydonini o'rGANADIGAN bo'lim.
15	tok	tok	current	tok-oqim degan ma'noni anglatadi.
16	kvazistatsionarnar	kvazistatsionar-nyi	cvazi-statsionar's	guyoki statsionar ya'ni statsionarga yaqin degan ma'noni anglatadi.
17	dipol	dipol	dipole	ikki qutbli degan ma'noni anglatadi.
18	nurlanish	izlucheniya	radiation	chiqish, tarqalishdegan ma'noni anglatadi.
19	quvvat	moshnost	power	vaqt birligi ichida bajarilgan ish.
20	to'lqin	volna	wave	tebranishlarni fazodagi tarqalishi.

**5. ILOVALAR:**

**A) «NAZARIY FIZIKA» FANI BO`YICHA O`QUV DASTURI**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro`yxatga olindi

BD-5110200 -3.05

2016- yil 25 08



**NAZARIY FIZIKA**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lif sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lif yo'nalishi: 5110200 - Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi

**Toshkent - 2016**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "15" 08 dagi "355"-sonli buyrug'inинг 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqiflashtiruvchi kengashning 2016-yil "8" 08 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassalari bilan kelishildi.

#### **Tuzuvchilar:**

- M.Djoraev – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrasi professori, ped.f.d., professor  
T.Murodov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrasi katta o'qituvchisi  
E.Xo'janov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrasi o'qituvchisi

#### **Taqrizchilar:**

- I.M.Maxmudov – Qo'qon DPI "Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.,  
D.T.Kuletov – Toshkent turizm kasb-hunar kolleji fizika va astronomiya o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2015- yil "14" 04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

## Kirish

“Nazariy fizika” fani Klassik mexanika, Elektrodinamika, Kvant mexanika, Statistik fizika va termodinamika bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu fan 5110200 - fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida tahlil olayotgan talabalarga “Nazariy fizika” kursi sifatida o‘qitiladi.

### O‘quv faninig maqsadi va vazifalari

“Nazariy fizika” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarda, bo‘lajak fizika o‘qituvchisiga zarur bo‘lgan darajada: makro va mikro dunyoda modda va maydonning harakat qonunlarini nazariy jihatdan asoslash, moddaning va uni tashkil etgan mikrozarralar xossalari o‘rganish, mikro va makroskopik sistemalarning turli holatlari nazariyasi, ularning fizik modellari xaqida nazariy bilim, ko‘nikma va malaka shakllantnrishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga Nazariy fizika kursining bo‘limlari (Klassik mexanika, Elektrodinamika, Kvant mexanika hamda Statistik fizika va termodinamika) doir eng kichik ta’sir prinsipini, Lagranj tenglamalari, mexanikadagi saqlanish qonunlarini, harakat tenglamalarini integrallashni, finit va infinit potensial maydonlardagi harakat tebranma harakat qonunlari; muhitlar chegarasidagi elektr maydoni, vakuumda va muhitda elektromagnit maydon xususiyatlarini, Maksvell tenglamalarini, elektrodinamikaning eksperimental asoslarini, elektrostatik potensiallarni; noaniqlik, moslik, qo‘sishchilik kvant prinsiplari, operatorlar, Shredenger tenglamasi va uni yechish metodlari va misollarini, g’alayon nazariyasini; makroskopik sistemaning muvozanat va nomuvozantli holatlari, termodinamik potensiallar, statistik sistemalarning kvant va klassik xussusiyatlari, kvant sistemasining kanonik va mikrokanonik taqsimoti, ideal gaz xussusiyatlari kabi vazifalarni o‘rgatishdan iborat.

### **Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar**

“Nazariy fizika” fani bo‘yicha talabalarning bilimiga qo‘yiladigan talablar: kursni o‘zlashtirishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

#### ***Klassik mexanikadan***

##### **Bakalavr:**

konservativ va nokonservativ sistemalar va ularda energiyaning saqlanish va aylanishlari;

uzluksiz muhit mexanikasi asoslari;

sano? sistemasini almashtirishlar: fazoviy va vaqt bo‘yicha siljishlar, fazoviy inversiya,

akslantirilish;

Puasson qavslari ***to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;***

saqlanish qonunlari va ularning fazo va vaqt simmetriyalari bilan bog‘lanishi;

dinamik holat va uning o'zgarish qonuni;  
qattiq jism harakati;  
Puasson qavslari, saqlanish qonunlari;  
fizik nuqta;  
massaning saqlanish qonuni, uzluksizlik tenglamasi;  
impulsning o'zgarish qonuni, harakat tenglamasi davri;  
umumlashgan koordinatalar va umumlashgan impulslar;  
Gamiltonning kanonik tenglamasi;  
markaziy maydonda zarra ?arakati;  
klassik mexanikaning modellari: moddiy nuqta, zarralar sistemasi, absolyut qattiq jism,  
uzluksiz muhit;  
zarralarning kinematik xarakteristikalari;  
qattiq jism harakati, chiziqli va burchak tezliklarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;  
harakat tenglamalari, Nyuton qonunlarini;  
analitik mexanika asoslari;  
Gamilton funksiyasi;  
kanonik tenglamalarni;  
chiziqli garmonik ostillyator, fazoviy traektoriya;  
radius - vektorning o'zgarishi, tezlik va tezlanish vektorlari;  
yo'l va ko'chish tushunchalarini qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;***  
***Elektrodinamikadan***

**Bakalavr:**

moddalarning magnit xossalari;  
dipol va uning xossalari;  
elektromagnit to'lqinlarning qutblanishi;  
umumiylar nisbiylik nazariyasi asoslari;  
ekvivalentlik prinsipi;  
Eynshteyn tenglamasi ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***  
Maksvell tenglamalarining eksperimental asoslari;  
diamagnetiklar, diamagnitizm;  
paramagnetiklar, paramagnetizm;  
ferromagnetiklar, ferromagnetizm;  
elektromagnit maydon energiyasi zichligi;  
maxsus nisbiylik nazariyasi postupatlari;  
vakuumdagi elektromagnit maydonning Maksvell tenglamalari;  
muhitdagi elektromagnit maydonning Maksvell tenglamalari;  
elektromagnit maydonning skalyar va vektor ***parametrlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;***  
magnit moment;  
to'rt o'lchamli fazo; to'rt o'lchamli tezlik;  
to'rt o'lchamli impulsni;  
Maksvell tenglamalarining fizik ma'nosi;

Doppler effekti;  
massa bilan energiya orasida bog'lanishni tushunish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;***

***Kvant mexanikadan***

**Bakalavr:**

mikroob'ektlarning xossalari;

relyativistik kvant mexanika asoslari ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***

yorug'likning korpuskulyar xossalari;

Frank-Gers tajribasi;

korpuskulyar – to'lqin dualizmi, Jermer-Devisson tajribasi;

Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari;

markaziy maydonda zarra harakati;

vodorod atomi va energetik spektrlari;

elektron spini;

Shtern - Gerlax tajribalari, Pauli prinsipi;

kvant sonlar;

mikroob'ektlarning holatlari;

to'lqin funksiya;

chiziqli va o'zaro qo'shma operatorlar;

xususiy funksiyalar; xususiy qiymatlar;

operatorlarning kommutatorlari;

stasionar holatlari;

erkin zarra; potensial o'radagi zarra;

tunnel effektini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

koordinata va impuls operatorlari;

impuls momenti operatori;

energiya operatori - gamiltonian;

chiziqli garmonik ossillyator; chiziqli garmonik ostillyator energiyasi spektrla ri;  
fotoeffekt;

Kompton effekti;

atom nurlanishdagi spektr chiziqlari;

mikroob'ektlarning to'lqin tabiatini;

atom tuzilishi, Mendeleev davriy sistemasi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;***

***Statistik fizika va termodinamikadan***

**Bakalavr:**

tartiblilikka intilish va o'ztashkillanish;

qaytar va qaytmas jarayonlar;

muvozanatli va nomuvozanatli holatlari;

ikkinchi tur fazaviy o'tishlar, Erenfest ta'rifi;

kvant korrelyator;

fonon gaz;

ko'chish tenglamalari;

momentlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

moddaning tartibli xolati va uning xaosga intilishi;

Gibbs ansamblı;  
makroskopik va mikroskopik holatlar;  
statistik fizikaning postulati;  
fluktuasiya xodisalari;  
aynish temperaturasi; absolyut temperatura  
termodinamik ehtimol, statistik vazn;  
metallarning elektr o'tkazuvchanligi; yarimo'tkazgichlarning elektr  
o'tkazuvchanligi;  
kimyoviy potensial; juft o'zaro potensial;  
Gibbsning fazalar qoidasi;  
Broun harakati, xaos;  
statistik integral (yig'indi);  
Boze taqsimoti. Bozonlar;  
Fermi taqsimoti. Fermionlar;  
foton gaz;  
eng katta ehtimollik holat; holat tenglamalari;  
fazaviy o'tishlar;  
makroskopik (termodinamik) sistemalar; yakkalangan, berk va ochiq  
sistemalar;  
taqsimot funksiyalari (mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimotlar);  
ichki energiya; issiqlik miqdori;  
makroskopik ish;  
entropiya;  
termodinamikaning ikkinchi qonuni;  
birinchi tur fazaviy o'tish, Klapeyron - Klauzius tenglamasi;  
Bolsman taqsimoti funksiyasi;  
termodinamik muvozanat shartlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***  
Plank formulasini;  
Reley - Jins, Vin qonunlarini;  
entropiyaning statistik ma'nosini;  
ideal gaz qonunlarini;  
termodinamikaning birinchi qonuni;  
Karno siklini;  
energiyaning teng taqsimlanish qonunini;  
Debay qonunini;  
Stefan - Bolsman qonunini;  
Geyzenbergning noaniqlik munosabatini tushuntirish ***ko'nikmalariga ega  
bo'lishi lozim;***

**Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy  
jihatdan uзвиyligi**

Nazariy fizika fani fizikaning barcha bo'limlari, oliv matematikaning differentialsal va integral hisobi, ehtimollar nazariysi, matematik statistika, astoronomiya va astrofizika, tabiiy-ilmiy va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan.

## **Fanning ta'limgangi o'rni**

«Nazariy fizika»ni o'zlashtirgan talaba makro va mikro dunyodagi moddalarning tuzilishi, ularning tashkil etuvchilarining xususiyatlarini, ulardagi turli jarayonlarning o'tish modellari va nazariyalari haqidagi qonuniyatlarini o'rganadi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlari pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llaydi.

## **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“Nazariy fizika” fanini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriylar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi.

### ***Asosiy qism*** **Klassik mexanika**

Nazariy fizika va olam manzarasi. Eksperiment va nazariya. Nazariyaning funksiyalari. Nazariy fizika predmeti va metodlari. Bilish sikli va nazariya strukturasi. Fizikada fazo vaqt tushunchasi. Fazo va vaqtning geometrik modellar. Klassik. Maydon va kvant-relyativistik modellar. Fizika qonunlarining simmetriyasi. Simmetriya va saqlanish qonunlari va ularning turlari. Moddiy nuqta. Erkinlik darajasi. Umumlashgan koordinatalar va umumlashgan tezliklar. Statsionar va nostatsionar boglanishlar. Eng kichik ta'sir prinsipi. Lagranj funksiyasi. Lagranj tenglamalari. Dekart koordinatalarda harakat tenglamalari. Umumlashgan koordinatalarda harakat tenglamalari. Galiley almashtirishlari va nisbiylik prinsipi. Inertsial sanoq sistemalarida Lagranj funksiyasi. Erkin moddiy nuqta (zarra) uchun Lagranj funksiyasi. Moddiy nuqtalar sistemasi uchun Lagranj funksiyasi

Lagranj funksiya va energiya. Sistemaning potensial va kinetik energiyasi. Saqlanish qonunlari va lagranj tenglamalari. Maxsus nisbiylik nazariysi: nisbiylik prinsipi. Lorents almashtirishlari. To'rt o'lchamli tezlik va tezlanish. Zarraning impulsi va energiyasi. Relyativistik zarralar uchun ta'sir prinsipi. Vaqt birjinsligi va energiyaning saqlanish qonuni

Fazo birjinsligi va impulsning saqlanish qonuni. Umumlashgan impuls va umumlashgan kuch. Fazo izotropligi va impuls momentining saklanish qonuni. Massa markazi. Impuls momenti. Bir o'lchovli harakat. Bir o'lchovli harakatning integral tenglamasi. Burilish nuqtalari. Finit va infinit harakat. Potensial o'ra va potensial to'siq. Qattiq jism kinematikasi. Eyler burchaklari. Inertsiya tenzori. Rotator. Qattiq jismning impuls momenti. Massa markazi. Inertsiya momenti. Qattiq

jismning harakat tenglamalari. Eyler tenglamalari. Gamilton tenglamalari va ularni Lagranj tenlamalaridan keltirib chiqarish. Gamilton tenglamasini integrallari. Gauss funksiyasi. Tebranma harakatning davrini topish tenglamasi. Tebranish davriga qarab potensial energiyani aniqlash. Puasson qavslari. Mopertyui prinsipi. Kanonik almashtirishlar. Gamilton-Yakobi tenglamalari.

## **Elektrodinamika**

Maksvell tenglamalari. Gerts tajribalari Elektromagnit to'lqinlarni modulyatsiyalash. Elektromagnit to'lqinlar shkalasi. Zamonyiy aloqa vositalari (radio, televidenie, radiotelefoniya, lazer nurlari vositasidagi axborotlarni uzatish, axborotlarni sonli tarzda uzatish). Maksvell siljish toki. Vakuumdagi elektromagnit maydon. Elektromagnit maydon potensiallari. Kalibrli invariantliklik. Elektromagnit maydon energiyasi, zichligi va energiyasi oqimining zichligi. Energiyaning saqlanish qonuni. Elektromagnit maydon impulsi va potensiali. Puasson tenglamalari, yechimi. Zaryadlar sistemasining hajm bo'yicha taqsimlanishi, ularning katta masofadagi potensiali. Tinchlikdagi zaryadlar sistemasi energiyasi. Elektrostatik maydon energiyasining zichligi. Zaryadlar sistemasining dipol va kvadrupol momentlari. Vektor potensial. Puasson tenglamasi, yechimi. Statsionar toklar magnit maydoni. Magnit moment va uning xossalari. Kechikuvchi potensiallar. O'zgarmas elektr va magnit maydonlarida zaryadlarning xarakati. To'lqin tenglamasi. Elektromagnit to'lqinlar va ularning tarqalishi. To'lqin kutblanishi. Dipol nurlanish. Elektromagnit tolqin fazasining relyativistik invariant miqdorligi. Nurlanish intensivligi. Oddiy nurlatuvchi sistemalar. Nurlanish reaktsiyasi. Nurlanish spektr chizig'inинг kengligi. Maksvell-Lorents tenglamalari. Mikroskopik maydon. Magnitlanish, qutblanish va ularning vektori. Muhit uchun Maksvell tenglamasi. Chegaraviy shartlar. O'zgarmas tok magnit momenti. Skin effekt. Chiziqli o'tkazgichlarda kvazistatsionar toklar. Kvazistatsionar magnit maydon energiyasi. Yuqori chastotali elektromagnit maydon. Elektromagnit to'lqinning muhitda tarkalishi va muxitdan qaytishi. Dalamber tenglamalarining kovariant ifodasi. Lorents shartining kovariant ifodasi. Elektromagnit maydon antisimmetrik tenzori. Maksvell tenglamalarining kovariant ifodasi. Elektromagnit maydon invariantlari. Elektr va magnit maydonlarni almashtirish. Foton – relyativistik zarra. Yulduzlar aberratsiyasi. Doppler effekti. Noinertsial sanoq sistema. Gravitatsiya. Gravitatsion va inert massa. Gravitatsiya maydoni va vaqt-fazo metrikasi. Energiya-impuls tenzori. Enshteyn tenglamasi (isbotsiz). Umumiy nisbiylik nazariyasini tasdiqlovchi omillar. Olamning ochiq va yopiq modellari. Olamning kengayishi. Xabbl qonuni. Singulyarlik.

## **Kvant mexanika**

Kvant mexanikasining predmeti va nazariy fizika kursida tutgan o'rni. Mikroob'ektlarning xossalari tavsiflashda klassik fizikaning zaifligi. Mikroob'ektlarning xossalari. Fizik kattaliklar qiymatlarining diskretligi. Korpuskulyar-to'lqin dualizmi. Geyzenbergning noaniqlik munosabati Mikrozarra xossalaring ehtimoliy xarakterga egaligi. Kvant mexanikada mikroob'ektlarning holatlari. Mikro ob'ektlar holatlarining tavsifi. To'lqin funksiya va uning ma'nosi. Superpozitsiya prinsipi. Kvant mexanikada kuzatiladigan kattaliklarni tavsiflash.

Chiziqli va o'zaro qo'shma operatorlar. Ermit operatorlarining xususiy funksiyalari va xususiy qiymatlari. Ularning fizik ma'nosi. Kuzatiladigan kattaliklarning o'rtacha qiymati. Operatorlarning kommutatorlari: Geyzenberg noaniqlik munosabati, kattaliklarning bir vaqtida o'lchanish (aniqlanish) shartlari. Koordinata va impuls operatorlari. Erkin zarra va tashqi maydon ta'siridagi zarraning gamiltoniani. Impuls momentining operatori. Shredinger tenglamasi. Sababiyat prinsipi va Shredinger tenglamasi. Ehtimollar zichligining uzlusizlik tenglamasi. Klassik mexanika- kvant mexanikaning chegaraviy holi. Puasson qavslari. Saqlanish qonunlarining fazo, vaqt simmetriyasi bilan bog'lanishi. Statsionar Shredinger tenglamasi. Statsionar holatlar va ularning xossalari. Erkin zarra. Potensial o'radagi zarra. Potensial bar'er (to'siq). Tunnel effekt Chiziqli garmonik ostsillyator. Uning energiya spektrlari va to'lqin funksiyalari. Tanlash qoidasi. Markaziy simmetrik maydonda zarra harakati. Orbital moment operatorlarining xususiy funksiyalari va xususiy qiymatlari. Rotator. Shredingerning radial tenglamasi. Vodorod atomi; to'lqin funksiyalar; energetik spektrlar. Kvant sonlari va ular yordamida holatlarni tavsiflash. Atom tuzilishi. Atomdagi "elektron buluti". Atomning Rezerford va Bor modelining tanqidi. Elektronning spini. Elektron va atomning harakat miqdorlarini turli momenti. Momentlarni qo'shish. Bog'lanish turlari. Majburiy va spontan nurlanishlarning Eynshteyn nazariyasi. Lazerlar. Aynan bir xil zarralar sistemasi. Zarralarning aynanlik prinsipi. Spin bilan statistika orasidagi bog'lanish. Bozonlar. Simmetrik holatlar. Fermionlar. Antisimetrik holatlar. Pauli prinsipi. Kvant mexanikaning taqribiy metodlari. Chetlanishning (g'alayonlanishning) statsionar nazariyasi. Chetlanishning (g'alayonlanishning) nostatsionar nazariyasi. Atomlar. Molekulalar. Gely atomi. Vodorod molekulasi. Kimyoviy bog'lanishlarning tabiatini va turlari. Valentlik. Atom va molekulalarning xossalari. Relyativistik kvant mexanika haqida tushuncha. Olamning ilmiy manzarasi haqida.

## **Statistik fizika va termodinamika**

Makroskopik sistema va uning turlari. Mikroskopik parametrlar. Muvozanatli va nomuvazanatli holatlar. Sistemaning mikroholatlari. Fazaviy fazo, fazaviy nuqta, fazaviy traektoriya.

Statistik fizikaning asosiy tushunchalari va prinsiplari. Vaqt va ansambl bo'yicha o'rtachalash. Statistik fizikadagi holat. Taqsimot funksiyalari. Fluktatsiya. Muvozanatli holat. Termodinamik ehtimollik. Statistik vazn. Mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari ifodalari. Termodinamik taqsimot. Parametrlar. Issiqlik va ish; Ichki energiya. Entropiya. Termodinamikaning birinchi qonuni; Holat tenglamalari. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Sikllar. Nomuvazanatli, qaytmas jarayonlar; Jarayonlarning qaytuvchanlik va qaytmaslik shartlari. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Ikkinci qonunning miqdoriy munosabati va uning isbotlari. Gibbsning umumiy formulasi. Termodinamik potensiallar Ichki energiya va uning o'zgarishi. Erkin energiya va uning o'zgarishi. Entalpiya. Gibbs va Gelmgolts termodinamik potensiallari. Kimyoviy potensial. Termodinamikaning uchinchi qonuni. Nernst teoremasi. Past temperaturalarni olish metodlari. Gomogen va geterogen sistemalar. Fazaviy o'tishlar. Klapeyron-Klauzius tenglamasi. Birinchi va ikkinchi tur fazaviy o'tishlar. Ideal gaz. Eng katta ehtimoliy taqsimot. Maksvell taqsimoti. Termodinamik parametrlar orasida bog'lanish. Maksvell-Boltsman taqsimoti. Barometrik formula. Real gaz. Xolat tenglamasi; Van-der-Vaals

tenglamasi. Energiyaning teng taqsimoti qonuni. Mikroholat. Fermionlar. Bozonlar. Fermi-Dirak va Boze-Eynshteyn statistikalari. Elektron sistema uchun aynish temperaturasi. Plank formulasi. Reley-Jins qonuni. Vin qonuni. Stefan-Boltsman qonuni. Dyulong-Pti qonuni. Eynshteyn nazariyasi. Debay nazariyasi. Fononlar. Fluktuatsiya nazariyasi. Termodinamik parametrler fluktuatsiyalari. Broun harakati. Eynshteyn nazariyasi. Fluktuatsion-dissipatsion teorema. Fazaviy korrelyatsiya. Boltsmanning kinetik tenglamasi va uni relaksatsiya vaqtini yaqinlashish uslubida yechish.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotda talabalar asosiy mavzulariga oid masalalar yechishni o'rghanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orkali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirqsh, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### ***Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:* Klassik mexanika**

Nazariy fizika va olam manzarasi. Eksperiment va nazariya. Nazariyaning funksiyalari. Nazariy fizika predmeti va metodlari. Bilish sikli va nazariya strukturasi. Fizikada fazo vaqt tushunchasi. Fazo va vaqtning geometrik modellari. Klassik. Maydon va kvant-relyativistik modellar. Fizika qonunlarining simmetriyasi. Simmetriya va saqlanish qonunlari va ularning turlari. Moddiy nuqta. Erkinlik darajasi. Umumlashgan koordinatalar va umumlashgan tezliklar. Statsionar va nostatsionar boglanishlar. Eng kichik ta'sir prinsipi. Lagranj funksiyasi. Lagranj tenglamalari. Dekart koordinatalarda harakat tenglamalari. Umumlashgan koordinatalarda harakat tenglamalari. Galiley almashtirishlari va nisbiylik prinsipi. Inertsial sanoq sistemalarida Lagranj funksiyasi. Erkin moddiy nuqta (zarra) uchun Lagranj funksiyasi. Moddiy nuqtalar sistemasi uchun Lagranj funksiyasi

### **Elektrodinamika**

Maksvell tenglamalari. Gerts tajribalari Elektromagnit to'lqinlarni modulyatsiyalash. Elektromagnit to'lqinlar shkalasi. Zamondiy aloqa vositalari (radio, televidenie, radiotelefoniya, lazer nurlari vositasidagi axborotlarni uzatish, axborotlarni sonli tarzda uzatish). Maksvell siljish toki. Vakuumdagi elektromagnit maydon. Elektromagnit maydon potensiallari. Kalibrli invariantliklik. Elektromagnit maydon energiyasi, zichligi va energiyasi oqimining zichligi. Energiyaning saqlanish qonuni. Elektromagnit maydon impulsi va potensiali. Puasson tenglamalari, yechimi. Zaryadlar sistemasining hajm bo'yicha taqsimlanishi, ularning katta

masofadagi potensiali. Tinchlikdagi zaryadlar sistemasi energiyasi. Elektrostatik maydon energiyasining zichligi. Zaryadlar sistemasining dipol va kvadrupol momentlari. Vektor potensial. Puasson tenglamasi, yechimi.

## **Kvant mexanika**

SHredinger tenglamasi. Sababiyat prinsipi va Shredinger tenglamasi. Ehtimollar zichligining uzlusizlik tenglamasi. Klassik mexanika- kvant mexanikaning chegaraviy holi. Puasson qavslari. Saqlanish qonunlarining fazo, vaqt simmetriyasi bilan bog'lanishi. Statsionar Shredinger tenglamasi. Statsionar holatlari va ularning xossalari. Erkin zarra. Potensial o'rada ni zarra. Potensial bar'er (to'siq). Tunnel effekt Chiziqli garmonik ostsillyator. Uning energiya spektrlari va to'lqin funksiyalari. Tanlash qoidasi. Markaziy simmetrik maydonda zarra harakati. Orbital moment operatorlarining xususiy funksiyalari va xususiy qiymatlari. Rotator. Shredingerning radial tenglamasi. Vodorod atomi; to'lqin funksiyalar; energetik spektrlar. Kvant sonlari va ular yordamida holatlarni tavsiflash. Atom tuzilishi. Atomdag'i "elektron buluti". Atomning Rezerford va Bor modelining tanqidi. Elektronning spin'i. Elektron va atomning harakat miqdorlarini turli momenti. Momentlarni qo'shish. Bog'lanish turlari.

## **Statistik fizika va termodinamika**

Makroskopik sistema va uning turlari. Mikroskopik parametrlar. Muvozanatli va nomuvazanatli holatlari. Sistemaning mikroholatlari. Fazaviy fazo, fazaviy nuqta, fazaviy traektoriya.

Statistik fizikaning asosiy tushunchalari va prinsiplari. Vaqt va ansambl bo'yicha o'rtachalash. Statistik fizikadagi holat. Taqsimot funksiyalari. Fluktatsiya. Muvozanatli holat. Termodinamik ehtimollik. Statistik vazn. Mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari ifodalari. Termodinamik taqsimot. Parametrlar. Issiqlik va ish; Ichki energiya. Entropiya. Termodinamikaning birinchi qonuni; Holat tenglamalari. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Sikllar. Nomuvazanatli, qaytmas jarayonlar; Jarayonlarning qaytuvchanlik va qaytmaslik shartlari. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Ikkinchi qonunning miqdoriy munosabati va uning isbotlari. Gibbsning umumiy formulasi.

## **Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali va ularni diskussiya shaklida bayon etadilar, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzu bo'yicha referatlar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotda talaba "Nazariy fizika"ning barcha bo'limlarining asosiy mavzulari bo'yicha masalalar yechishni o'rganadi.

**Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:**  
**Klassik mexanika**

1. Fizik ob'ektlarga to'la adekvat bo'limgan matematik ob'ektlar (son, vektor, funksiya funktsional operator, tenglama)
2. Lagranj funksiyani oddiy fizik sistemalar uchun ko'rinishlari.
3. Lagranj funksiyalari uchun ta'sir integralini hisoblash.
4. Ikkilangan yassi mayatnik uchun Lagranj funktsisini topish.
5. Erkin nuqta uchun Lagranj tenglamasini tuzish.
6. Saqlanish va simmetriya qonunlari.
7. Moddiy nuqta harakati.
8. Aylanma harakatdagi qattiq jismlar.
9. Reaktsiya kuchlari.
10. Gamilton tenglamasi.
11. Yassi matematik mayatnikni tebranish davri.
12. Puasson qavslari.

**Elektrodinamika**

1. Elektrodinamikaning matematik apparati.
2. Lorents kuchi va tsiklotron chastotasi.
3. Statsionar toklar maydoni.
4. Zaryadlar sistemasining nurlanishi.
5. Nurlanish chizig'inинг kengligi.
6. Chiziqli o'tkazgichlarda kvazistatsionar toklar.
7. Maksvell tenglamalar sistemasi.
8. Tezliklarni qo'shish.
9. Vaqt va uzunlik masshtablari nisbiyligi.
10. Eynshteyn formulasi.

**Kvant mexanika**

1. Elektromagnit maydonlarning nurlanish tabiatи.
2. Atom modellari.
3. Vodorod va vodorodsimon atomlar.
4. Zarralarning to'lqin xossalari.
5. Atomdagи elektronlarning holatlari.
6. Radioaktivlik hodisasi.
7. Yadro reaktsiyalari.
8. Elementar zarralar.
9. Fotoeffekt va Kompton effektini asoslash.
10. De-Broyl postulatlari.
11. Operatorlar
12. Impuls momenti.
13. Kinetik energiya va potensial energiya operatorlari
14. Geyzenberg noaniqlik prinsipi.
15. Simmetriya va saqlanish qonunlari.

16.Tunnel effekti va  $\alpha$  -emirilish nazariyasi.

17.Boze va Fermi sistemalari

### **Statistik fizika va termodinamika**

1. Taqsimot funksiyasylari.
2. Kanonik taqsimot.
3. Entropiya va termodinamikaning ikkinchi qonuni.
4. Ideal va real gaz holat tenglamalari.
5. Gibbsning taqsimot funksiyalari.
6. Karno teoremasi va Karno sikli.
7. Kritik holat va uchlanma nuqta.
8. Fermi-gaz xossalari.
9. Aynigan fermi-gaz.
- 10.Boze statistikasi va uning tadbiqi.
- 11.Fluktuatsiya va fluktuatsion munosabatlari.
- 12.Korrelyatsion funksiyasi.
- 13.Entropiya uchun Boltsman formulasi.
- 14.Termodinamikaning uchinchi qonuni.
- 15.Past va o'ta past temperaturalarda modda xossalari.
- 16.Kvazizarralar.
- 17.Qattiq jismlarning issiqlik sig'imi va uning tahlili.

### **Mustaqil ta'limgni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limgni tayyorlashda nazariy fizika fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'kuv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'kuv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

### ***Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limgning mavzulari:* **Klassik mexanika****

1. Harakat tenglamalari va variatsion prinsip
2. Lagranj funksiyasi.
3. Galiley almashtirishlari va nisbiylik prinsipi.
4. Sistemaning potensial va kinetik energiyasi.
5. Saqlanish qonunlari va lagranj tenglamalari
6. Maxsus nisbiylik nazariyasi

7. Lorents almashtirishlari.
8. To'rt o'lchamli tezlik va tezlanish.
9. Harakat tenglamalarini integrallash
- 10.Qattiq jismning impuls momenti
- 11.Gamilton tenglamalari
- 12.Puasson qavslari
- 13.Gamilton-Yakobi tenglamalari
- 14.Mopertyui prinsipi.

### **Elektrodinamika**

1. Maksvellning siljish toki xaqidagi gipotezasi va uni tasdiqlanishi.
2. Elektromagnit maydon energiyasining oqimi va impulsi.
3. Elektromagnit to'lqinlarni xossalari: qaytishi, sinishi, qutblanishi, interferentsiyasi.
4. Gerts tajribalari
5. Elektromagnit to'lqinlar shkalasi.
6. Elektromagnit o'zaro ta'sir va uning xarakteristikalarli
7. Vakuumdagi elektromagnit maydon.
8. Lorents kuchi.
9. Superpozitsiya prinsipi.
- 10.Maksvell siljish toki
- 11.Puasson tenglamalari
- 12.Elektrostatik maydon energiyasining zichligi.
- 13.Dipol va kvadrupol momentlari
- 14.Vektor potensial.
- 15.Dipol nurlanish.
- 16.To'lqin kutblanishi.
- 17.Muhit uchun Maksvell tenglamasi.
- 18.Skin effekt.
- 19.Elektromagnit maydon invariantlari.
- 20.Doppler effekti.
- 21.Umumiyl nisbiylik nazariyasi
- 22.Energiya-impuls tenzori

### **Kvant mexanika**

1. Bor postulatlari
2. Frank-Gerts tajribalari
3. Balmerning umumlashgan formulasi
4. To'lqinlar superpozitsiyasi
5. Fazaviy va gruppaviy tezliklar.
6. Shtern-Gerlax tajribasi.
7. Pauli prinsipi
8. Zeeman effekti.
9. Plank gipotezasi
- 10.Korpuskulyar-to'lqin dualizmi
- 11.To'lqin funksiya va uning ma'nosi.

- 12.Geyzenberg noaniqlik munosabati
- 13.Sababiyat prinsipi
- 14.Potensial o'radagi zarra.
- 15.Tunnel effekt
- 16.Chiziqli garmonik ostsillyator
- 17.Kvant sonlari
- 18.Lazerlar.
- 19.Spin
- 20.Fermionlar
- 21.Bozonlar.
- 22.Kimyoviy bog'lanishlarning tabiatи va turlari
- 23.Valentlik.
- 24.Relyativistik kvant mexanika

### **Statistik fizika va termodinamika**

1. Vaqt va ansambl bo'yicha o'rtachalash.
2. Statistik fizikadagi holat.
3. Mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari ifodalari.
4. Termodinamikaning birinchi qonuni va uning tadbiqi.
5. Termodinamikaning ikkinchi qonuni.
6. Termodinamik potensiallar.
7. Erkin energiya va uning o'zgarishi.
8. Gibbs va Gelmgolts termodinamik potetsiallari.
9. Kimyoviy potensial.
- 10.Nernst teoremasi.
- 11.Fazaviy o'tishlar.
- 12.Van-der-Vaals tenglamasi.
- 13.Plank formulasi.
- 14.Reley-Jins qonuni.
- 15.Vin qonuni.
- 16.Stefan-Boltsman qonuni.
- 17.Dyulong-Pti qonuni.
- 18.Eynshteyn nazariyasi.
- 19.Debay nazariyasi.
- 20.Fononlar.
- 21.Boltsmanning kinetik tenglamasi

## **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'kitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalari, ilmiy va o'quv adabiyotlar davriy ilmiy jurnallardan olingan ma'lumotlarning qo'llanilishi nazarda tutilgan.

### **Didaktik vositalar**

- 1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
- 2. Video-audio uskunalar:** video va audiomagnitafon, mikrafon, kalonkalar.
- 3. Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell **tipidagi proektor**, DVD- diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok). Fizika fani uchun tayyorlangan slaydlar, rangli rasmlar, sxemalar, plakatlar, yangi pedagogik texnologiyalar uchun tayyorlangan jihozlar shuningdek, elektron kutubxonalarda fizika uchun tayyorlangan materiallar.

### **Foydalanadigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

#### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. M.S. Yaxyoev. K. Muminov Nazariy mexanika. T. O'qituvchi.1992y.
2. A. Boydedaev Maxsus nisbiylik nazariyasi . T, TDPU. 2001y.
3. B.B. Мултановский. Курс теоретической физики. Классическая физика. М. Наука., 2000 г.
4. R. Bobojonov, A. M. Xudayberganov, G. A. Kochetkov. Atom fizikasidan masalalar yechish uchun qo'llanma. Toshkent. Universitet. 1993 y.
5. E.N. Rasulov, U.SH.Begimqulov, K.R.Nasriddinov, SH.X.Axmadjanova Kvant fizikadan masalalar to'plami. TDPU. 2004 y.
6. A.Boydedaev. Klassik statistik fizika. T. O'zbekiston. 2003y .
7. A.Boydedaev. Nomuvozanatl statistik fizika asoslari. T.O'qituvchi, 1992 y.
8. R.Mamatqulov va boshqalar. Statistik fizika va termodinamikadan masalalar to'plami, O'qituvchi, 2000 y.
9. G. X. Xoshimov, R. Ya. Rasulov, N. X. Yo'ldoshev. "Kvant mexanika asoslari". T.,"O'qituvchi", 1999y.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. И.В. Мещерский. Сборник задач по теоретической механике. М.,Наука., 1992 г.
2. Umumiy fizika kursidan masalalar to'plami. M.S.Sedrik tahriri ostida Toshkent, O'qituvchi, 1992 y.

3. Tursunov S., Kamolov J. “Elektr va magnitizm”, Т., O’qituvchi, 1996y.
4. В.В.Мултановский,А.С.Васильевский. Электродинамика. М., Просвещение. 1998г.
5. О. Qodirov, A. Boydedaev. Kvant fizika. Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti,. 2005y.
6. Е.М.Гершензон и др. Курс общей физики. Оптика и атомная физика. М., "Просвещение", 1997 г.
7. E.Rasulov . U.Begimqulov Kvant fizikasi.1-tom.,T.”Fan va texnologiya”, 2009 у.
8. E.Rasulov. U. Begimqulov Kvant fizikasi. 2- tom T.”Fan va texnologiya”, 2009 у.
9. Л.Д. Ландау и Е.М. Лифшиц. Статистическая физика. М.Наука.. 1999 г.
10. И.В. Савельев Основы теоретической физики. Том 1. М. Наука. 1992 г.
11. В. Шпольский. Атомная физика. В двух томах. Москва. Наука. 1992г.
12. К. Н. Мухин. Экспериментальная ядерная физика. В двух томах. Москва.,1998г.
13. А. И. Наумов. Физика атомного ядра и элементарных частиц. Москва., 2000г.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. www. tdpu.uz
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. Uz

**B) «NAZARIY FIZIKA» FANIDAN ISHCHI DASTUR**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Ruyxatga olindi:**

**№\_\_\_\_\_**

**“TASDIQLAYMAN”  
O’quv ishlari bo'yicha prorektor**

**2019 y. “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_**

**\_\_\_\_\_ b.f.n. A.J.Qo'shoqov**

**“\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2019yil**

**NAZARIY FIZIKA (Elektrodinamika)**

**fanining ishchi o'quv dasturi**

**Bilim sohasi: 100000-Gumanitar**

**Ta'lif sohasi: 110000-Pedagogika**

**Ta'lif yo'nalishi: 5110200-Fizika va astranomiya o'qitish metodikasi**

**Navoiy – 2019**

*Nazariy fizika (Elektrodinamika) fanidan ilovalar*

Fan dasturi Oliy va o’rtalik maxsus , kasb-hunar ta’limi o’quv –uslubi birlashmalari faoliyatining Muvofiqlashtirish Kengashining 201 yil , « » dagi « »–sonli majlis bayoni bilan maqullangan .

**Tuzuvchi:**

Abdullahayev J.M. – NavDPI, “Fizika va astronomiya o’qitish metodikasi” kafedrasi katta o’qituvchisi

**Taqrizchi:**

Xudoyberdiyev E.N. - Nav.DPI, “Fizika va astronomiya o’qitish metodikasi o’qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti.

Fanning ishchi o’quv dasturi “Fizika va astronomiya o’qitish metodikasi” kafedrasining 2018- yil –avgustdagi 1-sonli yig’lishida muhokamadan o’tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**dots. A.Axmedov**

Fanning ishchi o’quv dasturi “Fizika-matematika” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan(2019-yil \_\_\_\_\_-avgust 1- sonli bayonnomasi).

**Fakultet kengashi raisi:**

**dots. I.R.Kamolov**

**Kelishild:**

O’quv- uslubiy boshqarma boshlig’i \_\_\_\_\_ k.o’q. N.A.Xolmirzayev

### **Kirish**

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartiga ko’ra “Pedagogika” ta’lim sohalarida o’qitiladigan “Nazariy fizika” fani Klassik mexanika, Elektrodinamika, Kvant mexanika, Statistik fizika va termodinamika, bo’limlarini o’z ichiga olUshbu fan 5110200-fizika va astronomiya o’qitish metodikasi bakalavriat ta’lim yo’nalishida tahlisil olayotgan talabalarga “Nazariy fizika” kursi sifatida o’qitiladi.

### **Faninig maqsadi va vazifalari**

“Nazariy fizika” fanini o’qitishdan maqsad – talabalarda, bo’lajak fizika o’qituvchisiga zarur bo’lgan darajada: makro va mikro dunyoda modda va maydonning harakat qonunlarini nazariy jihatdan asoslash, muddaning va uni tashkil etgan mikrozarralar xossalari o’rganish, mikro va makroskopik sistemalarning turli holatlari nazariyasi, ularning fizik modellari xaqida nazariy bilim, ko’nikma va malaka shakllantnrishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga Nazariy fizika kursining bo’limlari (Klassik mexanika, Elektrodinamika, Kvant mexanika hamda Statistik fizika va termodinamika) doir eng kichik ta’sir prinsipini, Lagranj tenglamalari, mexanikadagi saqlanish qonunlarini, harakat tenglamalarini integrallashni, finit va infinit potensial maydonlardagi harakat tebranma harakat qonunlari; muhitlar chegarasidagi elektr maydoni, vakuumda va muhitda elektromagnit maydon xususiyatlarini, Maksvell tenglamalarini, elektrodinamikaning eksperimental asoslarini, elektrostatik potensiallarni; noaniqlik, moslik, qo’shimchalik kvant prinsiplari, operatorlar, SHredenger tenglamasi va uni yechish metodlari va misollarini, g’alayon nazariyasini; makroskopik sistemaning muvozanat va nomuvozantli holatlari, termodinamik potensiallar, statistik sistemalarning kvant va klassik xussusiyatlari, kvant sistemasining kanonik va mikrokanonik taqsimoti, ideal gaz xussusiyatlarini kabi vazifalarni o’rgatishdan iborat.

### **Fan bo’yicha talabalarning bilimi, ko’nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar**

“Nazariy fizika” fani bo’yicha talabalarning bilimiga qo’yiladigan talablar: kursni o’zlashtirishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Eng kichik ta’sir prinsipini, Lagranj tenglamalarini, mexanikadagi saqlanish qonunlarini, harakat tenglamalarini integrallashni, finit va infinit potensial maydonlardagi tebranma harakat qonunlarini; muxitlar chegarasidagi elektr maydonini, vakumda va muxitda elektromagnit maydon xususiyatlarini, Maksvell tenglamalarini, elektrodinamikaning eksperimental asoslarini, elektrostatik potensiallarni, noaniqlik, moslik, qo’shimchalik kvant prinsiplarini, operatorlarni, SHredenger tenglamasi va uni yechish metodlari va misollarini, g’alayon nazariyasini; makroskopik sistemaning muvozanat va nomuvozantli holatlarini, termodinamik potensiallarni, statistik sistemalarning kvant va klassik xussusiyatlarini, kvant sistemasining kanonik va mikrokanonik taqsimotini, ideal gaz xussusiyatlarini *bilishi kerak*;

- nazariy fizika qonunlarini, teoremlarini, gepoteza va aksiomalarini isbot qila bilish, uning mazmun va mohiyatini to’g’ri tushinib, muayyan misollarni yecha olish kabi *ko’nikmalarga ega bo’lishlari kerak*;

-talaba nazariy fizika kursining bo’limlariga doir amaliy mashg’ulotlarida o’zlashtirilgan barcha mavzular bo’yicha masalalar yechish, seminarre feratlarini tayyorlash, o’tqazish va hisob

kitob ishlarini bajarish, ularga doir xulosalar chiqara olish, fizikaviy qonuniyatlarini o'zlashtirish, ularni keyingi pedagogik faoliyatlarida qo'llash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

### **Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Nazariy fizika fani fizikaning barcha bo'limga, oliy matematikaning differensial va integral hisobi, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, astoronomiya va astrofizika, tabiiy-ilmiy va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

"Nazariy fizika" fanini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriylar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi.

"Nazariy fizika" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konstual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi. Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.

SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlanantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash. O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar. O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rGANISHGA asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari. Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili

### *Nazariy fizika (Elektrodinamika) fanidan ilovalar*

asosida o'qitish diagnostikasi. Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati. Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "Nazariy fizika" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

#### **Nazariy fizika fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha tasimlanishi:** **(Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi)**

T/r	Mavzular nomi	Jami soat	Ma'ruza	Amaliy	simenar	Mustaqil ta'lif
1	Kirish. Elektrodinamika fanining maqsadi va vazifalari. Matematik tushnchalar	8	2	4		2
2	Elektrodinamikaning eksperimental asoslari	10	4		2	4
3	Elektromagnit maydon potensiallari. Kalibrli invariantlilik.	6	2			4
4	Elektromagnit maydon energiyasi, zichligi va energiyasi oqimining zichligi. Energiyaning saqlanish qonuni	10	2	2	2	4
5	Zaryadlar sistemasining uzoq masofalardagi maydoni. Kvadrupol moment.	10	2	2	2	4
6	O'zgarmas magnit maydon. Vektor potensial.	10	2	4		4
7	Elektr dipolning nurlanishi. Nurlanish intensivligi va quvvati.	10	2	2	2	4
8	Elektromagnit	14	4	4	2	4

	to'lqinlarning tarqalishi					
9	Maksvell-Lorentz tenglamalari.	8	2		2	4
10	Elektr va magnit maydonlarida zaryadli zarra-chalar harakati	10	2	2	2	4
11	Relyativistik elektrodinamika	8	2		2	4
12	Maxsus nisbiylik nazariyasida optik hodisalar.	8	2		2	4
13	Umumiy nisbiylik nazariyasining elementlari	8	2		2	4
<b>Jami</b>		<b>120</b>	<b>30</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>50</b>

### Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

